**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“Iqtisodiyot” fakul’teti**

**“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi**

**Ro‘yxatga olindi**

**№ ______________________**

**2022 yil “____” ____________**

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor**
**dots. O.N.Bozorov**

**____________________________**

**2022 yil “___” ______________**

# “Korxona iqtisodiyoti va menejmenti”

# FAN SILLABUSI

**Bilim sohasi:** **300000 – Ishlab chiqarish va texnik soha**

**Ta’lim sohasi:** **320000 - Ishlab chiqarish va texnologiya**

**Ta’lim yo’nalishi:** **5321000 -** ***“Oziq-ovqat texnologiyasi” (ishlab chiqarish turlari bo’yicha, don) ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan***

**QARSHI – 2022 yil**

Ushbu fan sillabusi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2020 yil 14 avgustdagi 3-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 14 avgustdagi 418-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzilgan.

**Tuzuvchi:** - “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
**Fayziyeva SH.SH.**

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasining **2022 yil “22”avgustdagi № 01 - son** yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasida **2022 yil “24” avgustdagi № 01 - son** yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining **2022 yil “29” avgustdagi № 01 - son** yig‘ilishi qarori bilan o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

**O’quv - uslubiy boshqarma boshlig’i** **dots. Sh.R.Turdiyev**

**“Iqtisodiyot” fakul’teti uslubiy komissiyasi raisi:** **dots. A.B.Qurbonov**

**“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi mudiri:** **prof. S.N.Xamrayeva**

# FAN SILLABUSI

## QARSHI MUHANDISLIK- IQTISODIYOT INSTITUTI

### “Korxona iqtisodiyoti va menejmenti” fani sillabusi

| **Fan (modul) kodi**<br>EKON | **O‘quv yili**<br>2022-2023 | **Semestr**<br>5 | **ECTS krediti**<br>6 |
|---|---|---|---|
| **Fan (modul) turi**<br>Majburiy fan | **Ta’lim tili**<br>o‘zbek | | **Haftalik dars soati**<br>5 |
| **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim** | **Jami yuklama** |
| **Korxona iqtisodiyoti va menejmenti** | 90 | 90 | 180 |

### O‘qituvchi haqida ma’lumot

| **Kafedra nomi** | **Innovatsion iqtisodiyot** | | |
|---|---|---|---|
| **O‘qituvchilar** | F.I.SH. | Telefon nomeri | e-mail |
| **Ma’ruzachi** | Fayziyeva Shirin Shodmonovna | +998 93 424 85 14 | fayzieva_shirin@mail.ru |
| **Amaliy mashg‘ulot** | Fayziyeva Shirin Shodmonovna | +998 93 424 85 14 | fayzieva_shirin@mail.ru |
| **Laboratoriya mashg‘uloti** | - | - | - |

### I. Fanning mazmuni va maqsadi

“Korxona iqtisodiyoti va menejmenti” faninig asosiy maqsadi bo’lajak bakalavr iqtisodchilarga korxonalarini har tomonlama o’rganib, uning faoliyatini tahlil qilish va xolisona baho berish, korxonalarni yangi shakllarini tuzish va ular faoliyatini takomillashtirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilashning ichki imkoniyatlarini aniqlash yullarini o’rganishdan iborat.

**Fanni o’qitishdan maqsad** - korxonalarda yangicha iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish mexanizmini ochib berish asosida talabalarda xo’jalik yuritish va boshqarish ko’nikmalarini shakllantirishdir.

**Fanning vazifalari** - qo’yilgan maqsadddan kelib chiqib fan oldiga quyidagi vazifalar qo’yilgan:

- bozor iqtisodiyoti talablari asosida ishlab chiqarishni boshqarish mohiyatini ochib berish;
- talabalarda ilmiy-tadqiqot ishlarining boshlang’ich ko’nikmalarini hosil qilish;
- ularni har bir tadbirning iqtisodiy va texnologik jihatdan amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilimlar bilan qurollantirish;
- iqtisodiy qonunlarning korxonada amal qilish xususiyatlarini o’rgatish va boshqalar.

## II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

“Korxona iqtisodiyoti va menejmenti” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

Iqtisodiyot va menejment nazariyaning paydo bo‘lishi, uning konsepsiyalarini; institutlar tizimi va o‘yinlar nazariyasini; mulk huquqlarini tasniflanish belgilarini; xufyona faoliyatning kelib chiqish sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalari ***haqida tasavvurga ega bo‘lishi;*** oqibatlarini; institutlar faoliyatining rasmiy va norasmiy qoidalarini, institutsional islohotlar bosqichlarini; korporativ tizimlarini va ular guruhlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ustunliklarini; xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

iqtisodiyotda joriy etilgan institutlar tizimini, ular faoliyatining rasmiy va norasiy meyorlarini taqqoslash; transaksiya xarajatlarini klassifikatsiyalash va ular ko‘rsatkichlarini tahlil qilish; shartnoma (kontrakt) tarkibi va ularning asosiy ko‘rsatkichlarni baholash va tashkiliy tuzilmalarni tahlil qilish; davlat va firma faoliyatining rasmiy va norasmiy meyorlarini shakllantirish bo‘yicha ***ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim;***

korxonalarni tashkil etish, faoliyatini tugatish, samaradorligini oshirish, asosiy va aylanma fondlaridan foydalanish, boshqarishning tashkiliy tarkibi, tuzilishi, boshqarish usullari, shartnoma (kontrakt) tushunchasi va uning asosiy shartlari; bozor, firma va xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari haqidaaniq ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.***

Bundan tashqari talabalar o‘zlarini qiziqtirgan mavzu bo‘yicha tadqiqot savollarini shakllantirishlariga olib keladi.

## III. Ta’lim berish usullari va ta’lim texnologiyalari

Darsda quyidagi o‘quv usullari va shakllari qo‘llaniladi:

- ma’ruzalar
- amaliy mashg‘ulotlar
- o‘qituvchilarning maslahatlari
- mustaqil ish
- interfaol keys-stadilar
- taqdimotlar
- esse yozish
- guruhlarda ishlash
- individual loyihalar

Talabalar darslarda qatnashishdan oldin bir qator tayyorgarlik darslarini bajarishlari kerak.

## IV. Kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayorlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish.

## V. Fan tarkibi (ma'ruza mashg'ulotlari)

| Dars | Mavzular | Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlar rejasi | Ma'ruza mashg'u-lotlari, soat |
|---|---|---|---|
| 1. | **Korxona iqtisodiyoti va menejmenti fanining mohiyati va vazifalari.** | Kursda o'qiladigan muammolar mohiyati. Bozor munosabatlarining rivoji. Ishlab chiqarish omillari-korxona iqtisodiyotining tarkibiy qismlari. Iqtisodiy tizim turlari. An'anaviy, buyruqbozlik, bozor, aralash iqtisodiyotning xususiyatlari. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning O'zbekiston milliy modeli, uning tamoyillari, mohiyati va o'ziga xosligi. "Korxona iqtisodiyoti va menejmenti" kursining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. | 2 |
| 2. | **Korxona - kimyo va oziq- ovqat sanoatining asosiy bo'g'ini** | Korxonlarning vazifalari, huquqlari, tashkiliy asoslari va bozor munosabatlariga o'tishda tutgan roli. Mulk shakllari. Korxonani tashkil qilish va ro'yxatdan o'tish tartibi, mulkning shakllanish manbalari. Korxonalarning xo'jalik mexanizmi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida korxona turlari (xo'jalik, o'rtoqlik, AJ, birlashmalar, xolding kompaniyalar, kichik, o'rta, qo'shma va hokazo) | 2 |
| 3. | **Kimyo va oziq ovqat sanoati korxonasining asosiy kapitali va ishlab chiqarish quvvati** | Asosiy kapital-asosiy fondlar tarkibi, strukturasi, hisobga olinishi va baholanish usullari. Asosiy fondlar qiymatining qayta hisoblash indekslari. Asosiy fondlarning yemirilishi va amortizatsiyasi. Jismoniy va ma'naviy yemirilish mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 dekabrdagi № 469-sonli qaroriga binoan amortizatsiya normalari. Asosiy fondlarning ta'miri va ularni moliyalashtirishning mohiyati. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari. Asosiy ishlab chiqarish fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'nalishlari. Ishlab chiqarish quvvati. | 4 |
| 4. | **Kimyo va oziq ovqat korxonasining aylanma mablag'lari** | Aylanma (oborot) kapital-aylanma mablag'larning mohiyati va strukturasi. Ishlab chiqarish aylanma fondlar, ularning tarkibi va asosiy ishlab chiqarish fondlardan farqi. Muamola fondlar tarkibi. Aylanma fondlar va muamola fondlar strukturasi. Aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlash. Aylanma mablag'larni meyorlashtirish (normalashtirish). Aylanma mablag'larni hosil bo'lish manbalari. Aylanma mablag'lar aylanishi, aylanish doirasidagi uch bosqichning mohiyati, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda aylanish tezligi o'sishining ahamiyati. Aylanma | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | mablag‘lardan unumli foydalanish ko‘rsatkichlari. | |
| **5.** | **Kimyo va oziq – ovqat korxonasining mehnat resurslari** | Korxona kadrlarining potensiali va uni bozor munosabatlari sharoitidagi roli. Korxona faoliyati samaradorligini oshirishda insoniy faktor (omil)ning ta’siri. Xodimlar tanlovi va o‘sishining kriteriylari.<br>Mehnat resurslarining tavsifi. Sanoat ishlab chiqarish personalining ishchi va xizmatchilarga bo‘linishi, ularning tarkibi. Kasb (hunar), mutaxassislik (kvalifikatsiya) malaka tushunchalari, kadrlar strukturasi. Mehnat resurslarining miqdoriy tasnifi. Xodimlarning ro‘yxat, hozirgi , o‘rtacha-ro‘yxat sonlari, ularning mohiyati. Kadrlarni boshqarish va ishchi kuchini rejalash. Ish vaqti balansi. Kadrlar qo‘nimsizligi tushunchasi va unga ta’sir etuvchi omillar. Kadrlarni tanlash, tayyorlash va qayta tayyorlash. | 4 |
| **6.** | **Mehnat unumdorligi** | Mehnat unumdorligining mohiyati va ahamiyati. Mehnat unumdorligi o‘sishi-ishlab chiqarish hajmi oshishi va ishlab chiqarish sarflari kamayishining manbai, korxona va mamlakat iqtisodjiy potensialini kuchaytirishda muhim yo‘nalishidir. Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari va ularni hisoblash usullari. Mehnat samaradorligi o‘sishi va darajasi tushunchalari. Mehnat unumdorligini oshirish omillari va yo‘llari. | 2 |
| **7.** | **Kimyo va oziq – ovqat sanoat korxonasi xodimlarining mehnat haqlari** | Mehnat haqini ratsional tashkil qilishning tamoyillari va maqsadi.<br>Tarif tizimining mohiyati va uning tarkibiy elementlari. Tarif-malakaviy ma’lumotnoma, tarif setkasi, tarif stavka tushunchalari, ularning tarkibi va maqsadli ahamiyati. O‘zbekiston Respublikasida qo‘llaniladigan yagona tarif setkaning xususiyatlari. Xodimlar mehnat haqining shakllari (turlari). Vaqtbay va ishbay mehnat haqi, ularning ko‘rinishlari, qo‘llash shartlari, ish haqi hisobining metodikasi.<br>Ish haqi fondini aniqlash usullari, uni ishlangan va ishlanmagan vaqtni inobatga olgan holda tarkibi. O‘zbekiston Respublikasi mehnat Kodeksi, mehnat motivatsiyasi | 4 |
| **8.** | **Kimyo va oziq – ovqat korxonalari sarflari, ularning mohiyati, strukturasi va tavsifi** | Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish sarflarining iqtisodiy mohiyati. O‘zbekiston Respublikasi 1995 yil 01 yanvardagi № 9 va 1999 yil 05 fevraldagi № 54-son qaroriga binoan takomillashtirilgan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan, mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiyasi bo‘yicha sarflar tarkibi | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | hamda moliya natijalarining shakllanish tartibi haqida”gi Yo‘riqnomasi. Ushbu Yo‘riqnomaga binoan sarflar tasnifi, ularning tarkibi va mazmuni:<br>- mahsulot ishlab chiqarish tannarxi;<br>- davr xarajatlari;<br>- moliya faoliyati bo‘yicha xarajatlar;<br>- favqulotdagi zararlar.<br>Korxona xarajatlarining turli tasnifiy jihatlari bo‘yicha tasnifi va ularning tarkibi:<br>- ishlab chiqarish va nosanoat xarajatlar;<br>- to‘g‘ri va yondosh (kosvennqe) xarajatlar;<br>- mahsulot tannarxiga va davr xarajatlariga kiritiladigan sarflar;<br>- o‘zgaruvchan va o‘zgarmas sarf-xarajatlar, ularning korxona foydasiga bo‘lgan ta’siri;<br>- bezararlik nuqtasi (muvozanat nuqtasi) tushunchasi. Bu nuqtada sarflar umumiy tushum evaziga batamom qoplanadi, uni hisob metodikasi.<br>Mahsulot tannarxiga kiritiladigan harajatlar tasnifi. Sarf xarajatlarning kalkulyatsion moddalar va iqtisodiy elementlar bo‘yicha guruhlanishi. Tannarx strukturasi, uni kamaytirish yo‘llari. | |
| **9.** | **Kimyo va oziq – ovqat sanoati korxonalari moliya ko‘rsatkichlari** | Moliyaning mohiyati va funksiyalari.<br>a) Pul resurslarini hosil bo‘lishi va xarajatlashda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar tarkibi. Moliya mexanizmi va uning elementlari. Korxona moliya resurslari, ustav kapitali, korxona moliya resurslarining hosil bo‘lish manbalari.<br>b) Korxona foydasi, foyda miqdoriga ta’sir etuvchi omillar, foydaning funksiyasi. Foyda ko‘rsatkichlari:<br>- mahsulot realizatsiyasidan tushgan yalpi foyda;<br>- asosiy faoliyat foydasi;<br>- umumxo‘jalik faoliyatidan tushgan foyda (yoki zarar);<br>- soliq to‘lagunga qadar foyda;<br>- sof foyda;<br>- balans foydasi.<br>Foydani taqsimlash va undan foydalanish, bozorga o‘tish sharoitida foydani taqsimlash prinsiplari. Foydani rejalashtirish.<br>v) Korxona rentabelligi. Mahsulot rentabellik darajasi, monopodl mahsulot rentabelligi, sotilgan (realizatsiya qilingan) mahsulot rentabelligi, ishlab chiqarish fondlari yoki aktivlar rentabelligi, shaxsiy | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | kapital, bir aksiya rentabelligi. | |
| **10.** | **Bozorga o‘tish sharoitida narx (baho)larning shakllanishi** | Korxona xo‘jalik faoliyatida mahsulot narxi (bahosi)ni ahamiyati<br>O‘zbekiston Respublikasi 1995 yil 01 fevralda kiritilgan “Ishlab chiqarish-texnikaviy maqsaddagi mahsulot, xalq iste’mol mollari va xizmatlarning kelishilgan (erkin) narx (baho) larini shakllanishi va qo‘llanishi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi. Baholar turlari:<br>“A” va “B” guruhiga oid mahsulotlarning erkin ulgurji baho (haqiqiy sotilish baho)si. Aktsiz va qo‘shimcha qiymat solig‘i tushunchasi. Chakana baholarni shakllanishi. | 2 |
| **11.** | **Kimyo va oziq – ovqat sanoat korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi** | Ishlab chiqarish samaradorligi. Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi va uning mohiyati. Samara va samaradorlik tushunchalari. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari va hisoblash yo‘llari. Yillik iqtisodiy samaraning hisobi. | 2 |
| **Jami** | | | **30** |

## VI. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

| T/r | Amaliy mashg’ulot mavzulari | soat |
|---|---|---|
| 1 | “Korxona iqtisodiyoti va menejmenti” fanining mohiyati va vazifalari | 4 |
| 2 | Korxona - kimyo va oziq- ovqat sanoatining asosiy bo‘g‘ini | 4 |
| 3 | Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonasining asosiy kapitali va ishlab chiqarish quvvati | 6 |
| 4 | Kimyo va oziq-ovqat korxonasining aylanma mablag‘lari | 6 |
| 5 | Kimyo va oziq-ovqat korxonasining mehnat resurslari | 6 |
| 6 | Mehnat unumdorligi | 4 |
| 7 | Kimyo va oziq-ovqat sanoat korxonasi xodimlarining mehnat haqlari | 6 |
| 8 | Kimyo va oziq-ovqat korxonalari sarflari, ularning mohiyati, strukturasi va tavsifi | 6 |
| 9 | Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonalari moliya ko‘rsatkichlari | 6 |
| 10 | Bozorga o‘tish sharoitida narx (baho)larning shakllanishi | 6 |
| 11 | Kimyo va oziq-ovqat sanoat korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi | 6 |
| **Jami** | | **60** |

### Laboratoriya mashg‘ulotlari

Laboratoriya mashg‘ulotlari rejalashtirilmagan

### VI. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o‘qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta’lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o‘z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tayyorlash va h.k..

**Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

| | |
|---|---|
| 1 | “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” Davlat dasturining institutsional islohatlardagi o‘rni va ahamiyati. |
| 2 | 2021 yilda O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2022 yilgi iqtisodiy dasturning ustuvor yo‘nalishlari |
| 3 | “Korxona iqtisodiyoti va menejmenti” fanining mohiyati va vazifalari |
| 4 | Korxona - kimyo va oziq- ovqat sanoatining asosiy bo‘g‘ini |
| 5 | Kimyo va oziq- ovqat sanoati korxonasining asosiy kapitali va ishlab chiqarish quvvati |
| 6 | Kimyo va oziq-ovqat korxonasining aylanma mablag‘lari |
| 7 | Kimyo va oziq-ovqat korxonasining mehnat resurslari |
| 8 | Mehnat unumdorligi |
| 9 | Kimyo va oziq- ovqat sanoat korxonasi xodimlarining mehnat haqlari |
| 10 | Kimyo va oziq-ovqat korxonalari sarflari, ularning mohiyati, strukturasi va tavsifi |
| 11 | Kimyo va oziq-ovqat sanoati korxonalari moliya ko‘rsatkichlari |
| 12 | Bozorga o‘tish sharoitida narx (baho)larning shakllanishi |
| 13 | Kimyo va oziq-ovqat sanoat korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligi |

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

## VII. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish ( test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo‘yicha talalabalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTVning 2018 yil 9 avgustdagi 9-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom” asosida baholanadi.

**Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a’lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

*YAkuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.*

**Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talalabalarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.**

Fanning yakuniy bahosi uchta yo‘nalishdagi baholarga asoslanadi:

(1) Dars mashg‘ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish (10%).

Dars jarayonida muntazam ishtirok etishdan tashqari, talabalar darslar boshlanishidan oldin onlayn o‘quv materiallari bilan tanishgan bo‘lishlari talab etiladi. Har bir talabadan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish talab qilinadi.

(2) Auditoriyadagi mashg‘ulotlar (10%)

Har haftada o‘tilgan ma’ruzalar asosida 19 ta amaliy mashg‘ulot o‘tkaziladi. Har bir amaliyot mag‘ulot bo‘yicha topshiriqlar keyingi dars mashg‘ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Amaliy mashg‘ulotda berilgan topshiriqlarni bajarish.

(3) Yakuniy baholash (80%) (Baholash turi, vaqti, baholash mezonlari)

**Talabalar bilimini baholash tizimi**
**A (93-100)**
**A- (86-92)**
**B+ (82-85)**
**B (77-81)**
**B- (71-76)**
**C+ (67-70)**
**C (60-66)**
**C- (56-59)**
**D (55 -50)**
**E (0 – 49)**

## VIII. Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

### Asosiy adabiyotlar


1. Ulashev I.O. Korxona iqtisodiyoti va menejmenti. O‘quv qo‘llanma. 232 bet. Tafakkur-Bo‘ston. 2013y
2. Mahmudov E.X. “Korxona iqtisodiyoti” . Darslik 368 bet. Fan va texnologiya. 2013 y
3. Ortiqov A. “Sanoat iqtisodiyoti” Darslik. 405 bet. TDIU, 2004 yil


### Qo‘shimcha adabiyotlar


4. SH.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / SH.M. Mirziyoyev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
5. SH.M.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi, 2017 yil 14 yanvar. “O‘zbekiston”, 2017 yil, 104 bet
6. SH.M.Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 2016 yil 7 dekabr. “O‘zbekiston”, 2017 yil, 48 bet
7. “2017−2021 yillar O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”. 2017 yil fevral
8. Kudratov T. “Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati”. Darslik. 388 bet. 2012 yil
9. Бухалков М.И. Организация производства на предприятиях машиностроения. Учебник. –М.: ИНФРА-М, 2010 г.-511 стр.
10. Волкова О.И., Девяткина О.В. Экономика предприятия. Учебное пособие. – М. – ИНФРА-М. 2008 г. – 601 стр

11. “Mulkchilik to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. O’zbekiston respublikasi: qonunlar va farmonlar. – T., 1992 yil.

12. “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1992 yil.

13. “Tadbirkorlik to’g’risida”gi Uzbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1992 yil.

14. “Ijara to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.

15. “Qishloq xujaligi korxonalarini sanasiya qilish to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni. – T., 1998 yil.

16. “Aholini ish bilan ta'minlash to’g’risida”gi O’zbekiston respublikasining Qonuni.-T.,1998 yil.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi».

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga namunaviy shartnoma».

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Xizmat ko‘rsatishga (ishlarni bajarishga) namunaviy shartnoma”.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T:, 22.12.2017.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar

24. Qosimov G’.M. “Menejment” (darslik) T.: “O’zbekiston”, 2002 yil

25. SHarifxo’jaev M., Abdullaev YO.T. “Menejment” (darslik) T.:“O’zbekiston”,2001 yil

26. G’ulomov S.S. “Menejment asoslari” (darslik) T.: “SHarq”, 2002 yil

27. Фатхутдинов Р.А. Производственнъй менежмент. Питер, 2006.

28. Грузинов В.П. Экономика предприятия. - .:СОФИТ,1997.

29. Abdukarimov B. va boshqalar. “Korxona iqtisodiyoti”, darslik, Toshkent 2005 yil

30. Горфинкеля В.Й. “Экономика предприятия” Москва, ЮНИТИ.- 2001

31. SHarifxo’jaev M., Abdullaev YO.T. “Menejment” T.: “Mehnat”, 2000 yil

32. Egamberdiev E., Qudratov F. “Korxona iqtisodiyoti” (O’quv qo’llanma). Toshkent moliya instituti 2004 yil

33. Кантора Е.Л. “Экономика предприятия” СП “Питер”, 2002

**Axborot manbalari**

34. htpp:// www.gov.uz

35. htpp:// www.stat.uz

36. htpp:// www.soliq.uz

37. htpp:// www.edu.uz

38. htpp:// www.tsue.uz

39. htpp:// www.tfi.uz
40. htpp:// www.lex.uz
41. htpp:// www.brand.uz
42. htpp:// www.agrobusiness.ru
43. htpp:// www. timacad.ru